

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish
va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

MAKTABGACHA TA’LIMNING AMALIYOTIDA FOYDALANILAYOTGAN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH NAMUNALARI

Mo‘yдинов Шо‘ҳрат Mansurovich
Qo‘qон давлат педагогика институти
Sport va harakatli o‘yinlar kafedrasи o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’limning amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish namunalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Intellektual, ruhshunos, sog‘lom, aqlli, xushxulqli, intellekt, ruhiyat, estetik.

Quyida ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so’z yuritamiz.

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o’tilgan (chorak, o’quv yili tugagach) o’quv predmeti yoki bo’limning barcha mavzularini bolalar tomonidan yodga olish, biror mavzu bo'yicha tarbiyachi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda izoh berishga, shu orqali o’z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va tarbiyachi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha bolalarni baholay olishga yo’naltirilgan.

Uslubning maqsadi. Bolalarni mashg’ulotda o’tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirib olinganlik darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarining bilim darajalarini baholash, yakka va guruhda ishlash , guruhdoshlari fikrini hurmat qilishga va o’z bilimlarini tizimga solishga o’rgatadi.

Uslubning qo’llanishi. O’quv mashg’ulotlarining barcha turlaida, mashg’ulotning boshlanishida, mashg’ulot oxirida, bir bo’lim tugaganda o’tilgan mavzuni o’zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun, bolalarni joriy va oraliq, yakuniy baholash uchun ishlatiladi. Yangi mavzuni boshlashdan oldin bolalarning mavjud bilimlarini tekshirib olishga mo’ljallangan. Ushbu uslubni mashg’ulotning ayrim bosqichlarida yakka, kichik guruhda yoki jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg’ulotda foydalilanigan vositalar. Tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro’yxati, qalam, ruchka, slayd.

Izoh: reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda bolalarning qo'ygan

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos ravishda tayyorlangan tarqatma materiallar guruh bolalari yoki guruqlar soniga qarab mo’ljalanishi kerak.

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

bolalar guruhlarga ajaratiladi.

-bolalar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi.

-tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.

-bolalar yakka tartibda tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishib, ularning izohini yozadilar.

-belgilangan vaqt tugagach, tarbiyachi tarqatma materialda berilgan tushunchalarni o'qiydi ishtirokchilar javoblarini eshitadi va ekranda slayd orqali to'g'ri javobni e'lon qilib boradi.

-har bir bola o'z javobi bilan to'g'ri javob o'rtasidagi farqlarni aniqlaydi, to'g'ri javoblarini belgilaydi, o'z -o'zini tekshiradi, baholaydi.

«Fikriy hujum» (Mozgovaya ataka) metodi

«Fikriy hujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (baxs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaqa tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'barlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad bolalarlarning mashg'ulot (baxs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Bolalar soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi.

Bu metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

Metodning mohiyati quyidagicha:

jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish,

bolalar ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat.

Bu metod tabiyat, atrof olam, nutq, o'qish va savodga tayyorlash mashg'ulot turlarida yo'nalishlarda tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo'llash mumkin. Metoddan foydalanish bosqichlari:

1-bosqich

- Didaktik o'yinlar Ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan bolalarni o'zida biriktirgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish.

2-bosqich

Guruhlar hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash.

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

3-bosqich

Guruqlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlarning hal etilishi).

4-bosqich

Topshiriqlarning yechimlarini muhokama qilish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish.

5-bosqich

Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularning to'g'riliqi, yechimini topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayon etilishi kabi mezonlar asosida baholash.

6-bosqich

Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

-bolalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish,

-vaqtini tejash qilish,

-har bir bolani faollikka undash,

-ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

«Aqliy hujum», «Klaster metodi», «Qarorlar shajarası», «3/3, 4/4, 5/5,...» metodi, «Rasmlarni to'g'ri joylashtir», «qizil va rangli kartochkalar bilan ishlash», «Videotopishmoq», «Zakovatli zukko», «Qarama-qarshi munosabat», «Bilaman. Bilishnixohlayman. Bilib oldim.», «Zig-zag», «Insert», «Rolli hamda ishbop o'yinlar», «Adolat o'lkasiga sayohat», «Konstitutsiya ko'chasi», «Izquvarlar ko'chasi», «Jumboq ko'chasi», «Tafakkur ko'chasi», «Mahorat ko'chasi» kabi metodlar turli mashg'ulot jarayonida qo'llansa, mashg'ulot samaradorligining ortishi, bolalar o'zlashtirish darjasini oshishiga, esda saqlab qolishi va mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtiroklarida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta'lim olish motivlarini, ularning

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

turli yo’nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko’rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo’nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlar alohida o’ringa ega bo’lib bormoqda.

Bolalarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o’lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o’rgatish, nutq o’stirish, til o’rgatish, yangi bilimlar o’rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o‘yinlarga ajratiladi. Didaktik o‘yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo’lgan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko’zda tutiladi. Turli o’quv fanlariga oid didaktik o‘yinlar mavjud bo’lib, ular shu fanlarni sifatli o’rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko’ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funktsional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o‘yinlar ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o’ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini o’rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo’ldi. Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQShda so’ngra boshqa g’arb mamlakatlarda ishchanlik o‘yinlari qo’llanila boshlandi. Ishchanlik o‘yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli ta’lim metodlaridan iborat deb ta’kidlaganlar. Didaktik o‘yinlarning yana bir turi-aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo’llagan. Bu usulni g’oyalar banki deb ham nomlangan. U muammolarni qo’yidagicha yechishga asoslanadi,

- muammoli vaziyat yaratish,
- g’oyalarni shakllantirish,
- eng yaxshi g’oyalarni tekshirish, baholash va tanlash.

Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni yechish bo‘yicha iloji boricha ko’p, ba’zan, batamom kutilmagan g’oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg’uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda bolalarning belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda bolalarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi.

Ishchanlik o‘yini darsi- mashg’ulot mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni

Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg'ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolari

o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin mashg'uloti - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarini o'rghanishda bolalarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulot - mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali mashg'ulot mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter mashg'uloti - tegishli mashg'ulot turi bo'yicha mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Yarmarka mashg'uloti - mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan mashg'ulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot - bir nechta mashg'ulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulot bo'lib, bolalarning turli mashg'ulot turlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

«Mo'jizalar maydoni» mashg'uloti - bolalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik uyinlarini tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darjasini hisobga olinadi. Har bir didaktik uyin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik uyin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va mashg'ulotning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik uyin turlarini tanlash mezonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar,

- ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi, raqobatdosh komandalar va ommaviy o'yinlar

- vaqt me'yori bo'yicha-mashg'ulot, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va

Sport o‘yinlari (futbol, voleybol, basketbol, gandbol)ni rivojlantirish va mashg‘ulotlarni takomillashtirishning dolzarb muammolarini

mashg‘ulot jarayonida ulardan to’g’ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni qo’yidagi turlarga ajratish mumkin

-kontselyariya tovarlari-turli o’lchamlardagi oq va rangli qog’ozlar, skotch, ruchka, qalam, chizg’ich, yelim va boshqalar.

-texnika,-proektor, mikrofon, kompyuter, televizor,

Maktabgacha ta’limda har bir bola ayrim turdagи didaktik o‘yin mashg‘uloti o’quv materiallarini amalda qo’llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda bolalar o’z mashg‘ulot turlari bo’yicha o’zlari tanlagan mavzudagi mashg‘ulotni eng maqsadga muvofiq didaktik o‘yin turlaridan foydalanib o’tkazish yuzasidan dars ishlanmasini tayyorlashlari va uning asosida metod birlashma majlisida shu mashg‘ulotni bayon qilib berishlari va tegishli muhokamalar o’tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. -T.: «Ma’naviyat», 2008 y.
2. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: «Sharq», 1997 y.
3. Yo’ldoshev J.G’, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: «O’qituvchi», 2004 y.
4. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to’plam. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI.-T., 2007 y.
5. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.- T.: O’z PFITI, 1999 y.
6. Tolipov O’.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o’quv qo’llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
7. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do’stona muhit yaratish omili. -T.: YuNISEF, 2005 y.
8. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016
9. Sh.A.Sodiqova. “Maktabgacha pedagogika”. T.: “Tafakkur sarchashmalari”2013